

Kichik maktab yoshdagi bolalar diqqatining rivojlanish jarayonlari

Pedagogika, psixologiya va ta'lim
menejmenti kafedrasida katta
o'qituvchisi N.Raxmatova

Reja:

1. *Diqqat haqida tushuncha va uning nerv fiziologik mexanizmlari.*
2. *Diqqat turlari.*
3. *Diqqatning asosiy xususiyatlari.*
4. *Kichik maktab yoshdagi bolalar diqqatining rivojlanish jarayonlari haqida.*

Diqqat faoliyatining mukammal emasligi, ota-onalarning buni o'z vaqtida anglab yetmasliklari natijasida yosh bolalarda aqliy rivojlanishdan orqada qolish, nutq jarayonida o'zgaralar fikrini qabul qila olmaslik kabi muammolar kelib chiqishini mutaxassislar isbotlashgan. Farzandlarimiz ta'lim tizimida muhim ahamiyat kasb etadigan diqqat nima, uni qanday vositalar bilan boyita borishimiz lozim?

Diqqat psixik faoliyatining yo'naltirilishi bilan birga uning to'planishini taqozo qiladi. Psixik faoliyatning bir joyga to'planishi – mazkur faoliyatga hech qanday aloqasi bo'lmagan hamma boshqa narsalardan diqqatni chalg'itish demakdir. Diqqatning bir joyga to'planishi deganda mazkur faoliyatga butunlay berilish, unga ozmi – ko'pmi chukur e'tibor berish tushuniladi.

Diqqat har qanday faoliyatning muhim shartidir. Diqqatsiz hatto eng oddiy ishlarni ham bajarish mumkin emas. Diqqat mehnatning barcha jarayonida, ijodiy faoliyatda, oqishda ayniqsa katta ahamiyatga ega. K.D.Ushinskiy «Diqqat ruhiy xayotimizning shunday yagona bir eshigidirki, ongingizga kiradigan narsalarning barchasi shu eshik orkali o'tib kiradi», - deb yozgan edi.

Diqqatning nerv – fiziologik mexanizmini I.P Pavlovning yozishicha orientirovka refleksi tashkil etadi. Buni Pavlov «bu nima» refleksi deb ham atagan edi. Bundan tashqari, diqqat ma'lum nerv markazlarining qo'zgolishi va miyadagi boshqa nerv markazlarining tormozlanishi bilan ham bog'liqdir.


I. P. Pavlov tomonidan kashf etilgan nerv protsesslarining induktsiyasi qonuni diqqatining fiziologik asoslarini tushunib olish uchun muhim ahamiyatga egadir. Mana shu qonunga muvofiq bosh miya po'stining bir joyida paydo bo'lgan qo'zgalish bosh miya po'stining boshqa joylarida tormozlanishni yuzaga keltiradi. Va aksincha, bosh miya po'stining ayrim bir joyida yuzaga kelgan tormozlanish bosh miya po'stining boshqa joylarida kuchli kuzgolishni paydo bulishiga olib keladi. Ayni shu paytning xar bir onida miya pustida kuzgolish uchun optimal, ya'ni nixoyatda kulayligi bilan xarakterlanuvchi kuchli kuzgolish uchogi mavjud buladi.

A.A. Uxtomskiy tomonidan ilgari surilgan *DOMINANTA* printsipli xam diqqatning fiziologik asoslarini aniklash uchun katta ahamiyatga ega. SHu dominantalik printsipigiga muvofik miyada kuzgolishning xar doim ustun turadigan xukmron uchogi ayni shu damda miyaga ta'sir etib, unda yuzaga kelayotgan xamma kuzgolishlarni kandaydir ravishda uziga tortib oladi va buning natijasida boshka kuzgolishlarga nisbatan uning xukmronligi yanada oshadi.

Odatda dominonta subdominontaga, subdominonta esa dominontaga utib turadi. Bu esa diqqatning bir narsadan ikkinchi narsaga kuchib turishining nerv fiziologik mexanizmini tashkil etadi. Kurinib turibdiki, Pavlov bilan **Uxtomskiy** ta'limotlari bir – biriga karama – karshi emas, balki mazmun jixatdan uxshashdir.

Jiddiy diqqat, odatda uziga xarakterli bo'lgan tashqi ifodalar bilan bog'liq bq'ladi, narsani yaxshilab idrok qilishga qaratilgan xarakatlar bilan tikilib qarash, diqqat bilan eshitish, ortiqcha xarakatlarni to'xtatish, nafas olishni sekinlashtirish, diqqat uchun xarakterli bo'lgan yuz xarakterlari bilan bog'liq bo'ladi.

Diqqat uch turli buladi: ixtiyorsiz diqqat, ixtiyoriy diqqat, ixtiyoriydan keyingi yoki muvofiqlashgan diqqat.



IXTIYORSIZ diqqat maqsadsiz, rejasiz yuz beradi. Bunday hollarda faoliyat maroqliligi, qiziqarliligi yoki kutilmaganda sodir bo'lishligi bilan o'ziga jalb qiladi. Odam o'ziga ta'sir qilayotgan narsalarga, hodisalarga, bajarayotgan faoliyatiga beixtiyor berilib ketadi.

Ixtiyoriy diqqat deb ongimizni aniq maqsad asosida va idoraviy kuch yordamida kerakli ob'ektga yo'naltirishga aytiladi. Agar ixtiyorsiz diqqatda ish bizni oziga shunchaki jalb qilib olsa, ijtiyoriy diqqatda biz diqqatimizni qaratish uchun o'z oldimizga ongli suratda maqsad qo'yamiz, qiyinchiliklarni yengib, diqqatni to'plash uchun ko'rashib va har qanday boshqa narsalarga berilmaslik uchun iroda kuchini sarflab diqqatimizni ongli ravishda narsaga qaratamiz.

Ixtiyoriy diqqatning xarakterli xususiyati xuddi mana shu maqsad ko'zlashda, irodaviy zo'r berishda namoyon buladi.

Ixtiyoriy diqqat irodamizning namoyon bo'lishidir. qandaydir biror faoliyat bilan shug'ullanishga qaror kilar ekanmiz, diqqatimizni xatto ayni chogda biz uchun kizikarli bulmagan, lekin biz shug'ullanishni lozim topgan narsalarga ongli suratda qaratamiz. Demak, ixtiyoriy diqqat ixtiyorsiz diqqatdan sifat jihatdan farq qiladi.

Ixtiyoriy diqqat ixtiyorsiz diqqatdan kelib chiqqan. Odamda ixtiyoriy diqqat mehnat jarayonida yuzaga keladi. Chunki mehnat maqsadga muvofiq faoliyatdir. Maqsad ko'zlash esa o'z tarkibiga diqqatni yo'naltirishni ham oladi. Ijtimoiy hayot extiyojlari odamda o'z diqqatini mehnat faoliyati uchun muhim ahamiyatga ega bo'lmagan narsalarga qaratmaslik va mehnat jarayoni bilan bog'liq narsa ustida tuplash ruxida tarbiyalaydi.

Ixtiyoriy diqqat ixtiyorsiz diqqat kabi odamning kizikishlari bilan mustaxkam bog'likdir. Lekin, agar ixtiyorsiz diqqatda qiziqishlar bevosita bo'lsalar, ixtiyoriy diqqatda bamosita xarakterga ega bo'ladi. Faoliyatning o'zi bizni qiziqirmasligi mumkin, ammo faoliyatni bajarishda yuklangan vazifani hal qilish uchun zarur bo'lgani tufayli ana shu maqsad nuqtai nazaridan faoliyat biz uchun qizikarli bo'lib qoladi.

Ixtiyoriy diqqatdan tashkari, diqqatning ana bir turini qayd qilib o'tish lozim, bu diqqat, ixtiyoriy diqqat kabi maqsadga qaratilgan bo'lib, lekin doimiy irodaviy zo'r berishni talab qilmaydi. Masalan, o'kuvchi uy topshirig'ini bajarishga kirishganda dastlab bu ishga o'zini majbur qiladi, ataylab diqqatni ish ustiga to'playdi, irodaviy zo'r beradi. Lekin ishga kirishib olgach, endi irodaviy zo'r berish pasayadi, diqqat oz-ozidan ish ustiga to'planadi, o'quvchi esa ishni berilib bajara boshlaydi. Ana shu paytda o'quvchining diqqati ixtiyoriy diqqatdan muvofiqlashgan diqqatga aylanadi.

Diqqat bir necha xususiyatga ega buladi:

1. Diqqatning kulami.
2. Diqqatning kuchi va barqarorligi.
3. Diqqatning bo'linishi.
4. Diqqatning ko'chishi.
5. Diqqatning tebranishi.
6. Parishonlik.

Diqqatning barqarorligi deganda biror faoliyat ustida uzoqroq vaqt ushlanib turishligini tushinamiz. Diqqatning barqarorligi uning kuchi bilan chambarchas boglangandir. Odatda kuchli diqqat o/z navbatida barqaror ham bo'ladi.

Diqqat tebranish xususiyatiga ham egadir. Agar juda kuchsiz, zo'rg'a eshitiladigan ovozga quloq soladigan bo'lsak, masalan, soatning chiqqillashiga quloq solsak, diqqatimiz jiddiy qaratilgan bo'lishiga qaramay, bu ovoz goh baland, goh past eshitiladi. Bir – biriga yaqin bo'lgan yorug'lik farqini ajratishda ham xuddi shunday hodisa yuz beradi. Diqqatning bunday tebranish davrlari hisoblab

chiqilgan. Ma'lum bo'lishicha, diqqat tebranishning davomiyligi uncha katta bo'lmay, 1,5 sekunddan 2,5 sekundgacha yetadi.

Diqqatning bo'linishi – psixik faoliyatning shunday tashkil qilinishiki, bunda aynan bir vaqtning o'zida diqqatimiz ikkita va undan ortiq narsalarga qaratiladi. Diqqat haqiqatdan ham bo'linadimi? Bu sohada ko'plab tajribalar o'tkazilgan. Natijada, ayrim tadqiqotchilar diqqat bo'linadi desalar, boshqalari u bo'linmaydi, aksincha bir faoliyatdan ikkinchi faolyaiga tez ko'chadi degan xulosaga kelganlar.

Albatta, diqqatning bo'linishi uchun bajarayotgan ishlarimiz ma'lum darajada avtomatlashgan bo'lishi lozim. Masalan, rulga yangi o'tirgan shofyor tormozni bosaman deb gazni bosib yuboradi yoki mashinani boshqarishga diqqat qilgan holda yo'ldagi chuqurlikni kq'rmay qoladi.

Diqqat xususiyatlaridan yana biri uning ko'chishidir. Diqqatning ko'chishi deganda uning bir faoliyatdan ikkinchi faoliyatga tez o'tishini tushunamiz. Masalan, talabaniq diqqati ma'ruza tinglashdan uni yozishga, so'ng yozganini tushunishga, yana ma'ruza tinglashga tez ko'chib turadi. Diqqatning ko'chishini olimlar komplikatsiya degan asbob bilan o'lchaydilar.

PARISHONXOTIRLIK – bu diqqatning kerak bo'lganida boshqa ob'ektga tez ko'chmasligidir. Parishonxotirlik diqqatning salbiy xususiyati bo'lib hisoblanadi. Uni ikki xil ma'noda tushinish mumkin: biri kerak bo'lganida diqqatning ko'chmasligi bo'lsa, ikkinchisi, aksincha, uning bir faoliyat ustida to'xtab turmasdan chalg'ib ketaverishidir.

Birinchi xil parishonlik ko'proq yozuvchilarda, olimlarda uchraydi. Masalan, yozuvchi fikrga astoydil berilganligi sababli atrofidagi narsalarni, hatto yonidagi odam murojaat kilayotganini xam sezmaydi.

Ikkinchi xil parishonxotirlikda odam biror narsa ustida dikkatini uzok tuplay olmaydi, bir narsadan ikkinchi narsaga, bir xodisadan ikkinchi xodisaga tez utib turadi. Bu xolat yosh bolalarda tez uchrab turadi, ya'ni ular aytilgan gapni tez unutib kuyadi. Diqqatning salbiy xususiyatlaridan yana biri uning chalgishidir. Diqqatning chalgishi deganda uning asosiy faoliyatdan ikkinchi darajali narsalarga utib ketaverishi tushuniladi. Masalan, sinfda utirgan ukuvchi diqqatini kuldan tushib ketgan kalam tovushi xam, deraza orkasida eshitilayotgan odam tovushi xam chalgitishi mumkin.

Diqqatning xususiyalariga uning kulamini xam kushish mumkin. Diqqat kulami jixatdan tor va keng bulishi mumkin. Buni biz taxistoskop degan asbobda ulchab bilishimiz mumkin.

Diqqat bolaning birinchi yoshidanok tarakkiy eta boshlaydi. Dastlab ixtiyorsiz dikkat namoyon buladi. CHunki bola rangdor narsalarga, shakildok ovozigaga dikkat kiladi. Ixtiyorsiz dikkatning usishi extiyoj va kizikishlar bilan boglikdir. Lekin inson faoliyatining asosiy kismi ixtiyoriy diqqat asosida amalga oshiriladi. Ixtiyoriy dikkat esa bolada ikki yoshlardan boshlab kurina boshlaydi. Uning shakllanishida kattalarning roli bekiyosdir. Masalan, ular bolaga «buyokka kara», «gapimni eshit», «musikaga kulok sol» deb gapiradilar. Kattalar tomonidan dikkat

mana shunday yullar bilan usib boradi. 3-5 yoshlardan boshlab esa diqqat bolaning uz tashabbusi bilan usa boshlaydi.

Bogcha yoshidagi bolalarda ixtiyoriy diqqatning usishida uyin katta axamiyatga egadir. Chunki uyin koidalarini va etaplarini bilib olish uchun bola unga ixtiyoriy diqqat bilan razm solib turishi lozim. Bundan tashkari, uydagi ba'zi bir ishlarga katnashtirish, uz-uziga xizmat kilish kabilar xam ixtiyoriy diqqatni usishiga yordam beradi.

Maktab yoshidan boshlab esa ixtiyoriy diqqat juda tez usa boshlaydi. Ukish ishida – darsni eshitish, kitob ukish, masalalarni yechishda ixtiyoriy diqqat talab kilinadi. Bundan tashkari, ukish ixtiyoriy diqqatni ustirib kolmasdan, balki uning kuchi, barkarorligini usishiga xam yordam beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari 7-11 yoshli bo'lgan (I-IV) sinflarning o'quvchilari kiradi. Bola maktab ta'limiga bog'chada tarbiyalanayotganda tayyorlanadi. Talablar bilan tanishadi. Bunda u maktabda o'quvchilarga quyiladigan xar xil talablar bilan tanishadi. Fon, asoslarini o'rganish uchun biologik va psixologik jihatdan tayyor bo'ladi.

Ta'limga psixologik tayyorgarlik deganda bolaning obektib va subektiv jihatdan maktab talabiga ta'limiga munosibliigi nazarda tutiladi. U maktab ta'limiga avval psixologik jihatdan tayyorlanadi. Binobarin , uning psixikasi bilim olishga yetarli darajada rivojlanadi. Shu yoshdagi bola idrokining o'tkirligi rvshanligi, sog'ligi , aniqligi, o'zining qiziquvchanligi dikkashligi xayrixoxoligi , ishonuvchnaligi xayolning yaqqolliigi, tafakkurining yaqqolliigi xotirasining kuchliliigi, tafakkurning yorqinliigi bilan boshqa yoshdagi bolalardan ajralib turadi. Maktab ta'limiga tayyorlanayotgan bolaga diqqat nisbatan uzoq muddati va shartli barqaror bo'ladi. Bola diqqatining xususiyatlari rolli va syujetli o'yinlarda rasm chizish va qurish- yashash mashg'ulotlarida loy hamda plastilindan o'yinchoqlar tayyorlashda matematik amallarni yeshichda, hikoya tinglash va tuzishda ko'rinadi. Bola o'z diqqatini muayyan obyektga yo'naltirish, to'plash taqsimlash bo'yicha ma'lum darajada ko'nikmaga ega bo'lib o'z diqqatini boshqarish va kerakli paytda to'plashga intiladi. Uning xotirasi qiziqarli, ajoyib-qarayib kishini taajjubga

Boshlang'ich sinf o'quvchilarda diqqatni irodaviy zo'r berish bilan boshqarish va favqulotda moslash imkoniyati yaxshi bo'lmaydi. Buning asosiy sababi ularda ixtiyoriy diqqatning kuchsizliigi va beqarorligidir. Shu bilan birga boshlang'ich sinf bolalarning ixtiyorli ongli diqqati o'qish motivlari bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi. Odatda ularning o'qish motivlarning uzoqni ko'zlagan va maqsad bilan bog'liq motivlarga ajratiladi. Yuqori motivlari uzoqni

ko'zlagan motivlarga kirsas, boshlang'ich sinf o'quvchilarning motivlari voqelikka va realikka bog'liq motivlardir.

Tajribadan ma'lumki bolarga ehtiyoorsizlik diqqat durustgina rivojlangan bo'ladi. Chunki ta'lim jarayonida ixtiyoorsiz diqqatining o'sishi uchun muhim shart-sharoitlar mavjuddir. Boshlang'ich sinf o'quv materiallarning yaqqolligi yorqinligi jozibadorligi o'quvchida beixtiyor his-tuyg'ular uyg'ota oladi. Irodaviy zo'riqishsiz osongina fan asoslarini egallash imkonini yaratadi. O'quv materiallaining turli-tumanligi ixtiyoorsiz diqqatining to'planishi markazlashuvi va barqarorligiga ijobiy ta'sir etadi. Boshlang'ich sinf bolalrni o'qitishga ko'rsatmalilikdan keng foydalaniladi. Bu tadbir birinchidan bolalar faolligini oshirsa ikkinchidan materialni mantiqiy jihatdan o'zlashtirishga uni tahlil etish mavhumlashtirish va umumlashtirishga to'sqinlik qiladi. Ularga ko'rsatmalilikka asoslangan dinamik streotip paydo bo'lishi ham mumkin. Sun'iy to'siqlar halol beruvchi alomatlardan qutilish uchun yaqqol va mavhum materiallardan aralash holda foydalanish yaxshi natija beradi. Bolaning ko'rsatmalikka berilib ketishi uni asosiy maqsaddan uzoqlashtiradi. Bola tashqi belgilarga e'tibor berishga odatlanib, ichki muhim belgilardan chetlasha boradi.

Ma'lumki ixtiyoorsiz diqqat ta'lim jarayonida o'quvchilarning qiziqish bilan bevosita bog'lanib ketsa, tabiiyki ular faqat maroqli quvonchli axborot va matnlar bilan tanishishga intiladigan bo'lib qoladilar. Natijada o'ta nozik ya'ni tashqi qo'zg'atuvchilar ta'siriga beriluvchi diqqat ularning psixikasida mustahkamlanadi. Odatlanish murakkab o'quv materiallarini egallashda qiyinchiliklar tug'diradi. Shuning uchun K. D Ushkinskiy bolani faqat o'zini qiziqtirgan narsa bilan emas balki uni qiziqtirmagan narsa bilan ham mustahkamroq eslab qoladilar va uzoq muddat esda saqlaydilar. Birinchi va ikkinchi sinf o'quvchilari ta'limiy materiallarning ichki bog'lanishlarga ahamiyat bermay ma'nosida tushunmay quruq eslab qo'ladilar. O'rganilayotgan materiallarni mantiqiy tahlil qilmay yoddaki o'zlashtiradilar buning sabablari

1)ularning mexanik xotirasi boshqa xotira turlariga qaraganda durustroq rivojlangani, ma'lumotlarni aynan o'zgarishsiz eslab qolish imkoniyatini yaratadi.

2) O'quvchilar o'qituvchi qo'ygon vazifani anglab yetmaydilar natijada uning to'g'ri tushuntirib ber degan talabini so'zma-so'z takrorlash deb biladilar

3) ularning nutq boyligi etishmasligi (ilmiy atamalar va til qonuniyatlarini bilmasligi) materialni ijodiy to'ldirish unga qo'shimcha qilish imkoniyati yo'qligi uni soz'ma-so'z qaytarishni osonlashtiradi.

4) O'quvchilar matni to'g'ri usullar yordamida eslab qo'lishni bilmaydilar A.A Smirnov eslab qolishning tog'ri usuli sifatida matndagi ma'nodosh soz'lardan guruhlarga ajratish , tayanch nuqtani toppish, soz'lab berish uchun reja tuzish va o'tilgan mavzularni idrok etgan holda yangi mavzuni takrorlashni tavsiya mohiyatini turli mulohazalarni dalillarni ilmiy asoslarini eslab qolish va esga tushirish orqlai o'quvchialarda mantiqiy xotira takomillashadi. Ularni A.A Smirnov tavsiya qilgan usul va vositalar bilan qurollanadi. Aqliy mehnatda mustaqillikni vujudga keltirmay bilishga intilish qobiliyatini o'stirish mumkin emas. Shuning uchun boalarga izohli oq'ish masalaning shartini sharxlash muammoli vaziyatlarni yaratish va hal qilishni o'rgaish muhim ahamiyatga ega. Ixtiyoriy eslab qolish va ixtiyoriy esga tushirishning mahsuldorligi ko'p jihatdan o'quvchilar aqliy faolligining darajasiga bog'liq

Psixologik diagnostika tadkikotlarida birinchi va ikkinchi sinf ukuvchilari darsda fakat 30-35 dakika dikkat bilan utirishi, uz dikkatini muayyan ob'ektga tuplashi va unda ushlab turishi mumkinligini kursatgani isbotlangan. SHuning uchun dars mashgulotlari jarayonida kiska tanaffus utkazib turish tavsiya kilinadi. Ta'lim olayotgan xar bir individ uziga xos betakror olam. Ukituvchi esa ushbu shaxsni arbiyalashda dastavval uning betakror olamiga kira olishi va shunga mos keluvchi tarbiyaviy tadbirlar utkazishi lozim.

Адабиётлар:

1. G'oziev E. Oliy maktab psixologiyasi. T.1994.
2. Dobrinin N.F. Vnimanie i yeyo vospitanie. M.1986.
3. G'oziev E Umumiy psixologiya. T. 2012
4. Xrestomatiya po vnimaniyu. M.1990.

**Педагогика, психология ва таълим менежменти кафедраси катта
укитувчиси Н.Рахматованинг “Кичик мактаб ёшдаги болалар
диккатининг ривожланиш жараёнлари” мавзусидаги методик
тавсиясига**

ТАКРИЗ

“Кичик мактаб ёшдаги болалар диккатининг ривожланиш жараёнлари” мавзусидаги методик тавсиясида асосан диққат фаолиятининг мукамал эмаслиги, ота-оналарнинг буни уз вақтида англаб етмасликлари натижасида ёш болаларда аклий ривожланишдан орқада қолиш, нутқ жараёнида узгалар фикрини қабул қила олмаслик каби муаммолар келиб чиқиши хақида маълумотлар келтирилган.

Муаллиф томонидан диққатнинг муҳим психологик жараён эканлиги, масаланинг назарий асослари И.П Павлов ҳамда А.А. Ухтомскийлар томонидан урганилган. Айниқса, А.А. Ухтомский томонидан илгари сурилган *ДОМИНАНТА* принципи ҳам диққатнинг физиологик асосларини аниқлаш учун катта аҳамиятга эга. Шу доминантлик принципига мувофиқ миёда кузголишнинг ҳар доим устун турадиган ҳукмрон учоги айна шу дамда миёга таъсир этиб, унда юзага келаётган ҳамма кузголишларни қандайдир равишда узига тортиб олади ва бунинг натижасида бошқа кузголишларга нисбатан унинг ҳукмронлиги янада ошиши эътироф этилган.

Муаллиф томонидан методик тавсияда диққатнинг уч тури, хусусиятлари, унинг қўламини хақида атрофлича маълумот берилган.

Кичик мактаб ёшдаги болалар диккатининг ривожланиш жараёнлари асосли равишда ёритилган. Айниқса, бола диққатининг хусусиятлари ролли ва сюжетли ўйинларда, расм чизиш ва қуриш, яшаш машғулотида, лой ҳамда пластилиндан ўйинчоқлар тайёрлашда, математик амалларни ешишда, ҳикоя тинглаш ва тузишда қўриниши айтиб утилган.

Методик тавсияни бошланғич таълим уқитувчилари учун методик тавсия сифатида тақдим этиш мумкин.

**Педагогика, психология ва
таълим менежменти кафедраси
катта уқитувчиси:**

А.Соатов

